

O‘ZBEK TILIDA ESHITISH (OVOZ) + TA’M BILDIRUVCHI SIFATLARDA SEMANTIK SINKRETIZM

*Andijon davlat universiteti
katta o‘qituvchisi Teshaboyeva Gulnoza*

Annotatsiya: Ushbu maqolada, tilshunoslikd ta’m ifodalovchi idrok sezgilari orasida eshitish sezgisi ham semantik sinkretik tabiatiga egaligi bilan o‘ziga xosdir. Ta’m ifodalovchi sifatlarni otlar bilan biriga birika olishi keng ma’nodagi sinestetik metaforani, ya’ni eshitish metaforik xususiyatni ifoda etadi.

Kalit so‘zlar: Taktil modeli, sifatlarning semantikasi, ovoz tembri, sezgi, ta’m, idrok.

Аннотация: В этой статье мы рассмотрим, что среди восприятия вкуса в лингвистике слуховое восприятие также имеет семантическую синкретическую природу. Соотношение вкусовых качеств с лошадьми в широком смысле означает синестетическую метафору, то есть метафорическую особенность слуха.

Ключевые слова: Тактильная модель, семантика качеств, тембр голоса, интуиция, вкус, восприятие.

The summary . In this article we will consider that among taste perception in linguistics, auditory perception also has a semantic syncretic nature. The relation of taste to horses in the broad sense means a synesthetic metaphor, that is, a metaphorical feature of hearing. The key words. The tactile model, the semantics of the qualities, the timbre of the voice, the intuition, the taste, the perception

Zamonaviy tilshunoslikda ta’m ifodalovchi sifatlarning semantikasiga qayta-qayta murojaat etish ta’dqiqot ob’jektiga aylangan. Shunday bo‘lsa-da, ta’mning o‘ziga xos semantik ma’no xususiyatlarini o‘rganish tadqiqotchilarning uchun yetarli materiallarga egaligi amalda ko‘rsatmoqda. Demak, ta’mning ifodalanishi ob’yektiv olam bilan bog‘liq bo‘lib, o‘zining xilma xil va ko‘p qirraligi bilan ajralib turadi

Kuzatishlar jarayonida til materiallarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, ta’m bildirishdagi o‘zgarishlar boshqa tillar qatori o‘zbek tilida ham o‘xshash bo‘ladi. Tildagi semantik o‘zgarishlarning eng tipik turi metaforik ko‘chish hisoblanib, bu jarayonda sifatlarning sinestetik ma’no ifodalaydi. Tilda oltita sifat leksemasining baholash ma’nosiga ega ekanligini ko‘rsatish mumkin: shirin, achchiq, sho‘r, maza, nordon, ta’msiz, bemaza. Shuningdek, bu leksemalar ko‘chma ma’noda qo‘llanishi bilan xarakterli hisoblanadi. Metaforik ko‘chish ta’m bilan bog‘liq turli ma’nolarni yuzaga keltiradi. Ko‘chish ta’mdan hissiyotga, hissiyotdan xarakterga bog‘liq ravishda voqelanadi. Metanomik ko‘chish ham metaforik ko‘chish bilan bir xil tarzda yuz beradi. V. V. Voligina sensor – emotsionallikni tarixiy manbalar asosida o‘rganadi va sinestetik metaforik ma’no ifodalanishini musiqa va rang tasvirlarda ko‘radi. Uningcha, musiqa asarlari ajoyib san’at asarlari bo‘lib so‘z bilan xarakterli hisoblanadi. Nutq metafora bilan bog‘liq o‘ta chiroyli sinesteziya filtridan o‘tadi. Bunda eshitish va ko‘ruv orqali vizual(musiqa uchun), audial(tasvir uchun), sezgi, ta’m, idrok sinestetik obrazlarda namoyon bo‘ladi. [Вологина О.]

Taktil modeliga ko‘ra sinestetik ko‘chish yuz va ovoz tembri bilan uzviy aloqada bo‘lgan hissiy sezgilardagi o‘xshashlik asosida yuzaga kelishi mumkin. Masalan, o‘tkir va nozik sifatlari majoziy ma’no (o‘tkir ovoz, nozik musiqa yoki nozik ovoz, o‘tkir musiqa)ga ega bo‘ladi. Shuningdek, ovozning turli ko‘rinishlarini belgilovchi qattiq shuttak, achchiq qichqiriq sifat/ot tipidagi birikmalar majoziy ma’nodagi yoqimsizlik, qo‘pollik, xushlamaslik semalarini tashiydi. Albatta eshituvchanlik ovoz bilan bog‘lanadi. Ovozda inson jismini maftun etuvchanligi va uning aksini ifodalovchi, ruhiyatidagi o‘zgaruvchanligiga sabab bo‘ladigan xususiyatlarni aks ettiruvchi ma’no mavjud. Unda ijobiy va salbiy baho beruvchi darajalanish keng. Gap shundaki,

ovoz inson sezgi organlaridagi eshituvchanlikni idrokka ta'siri natijasida paydo bo'ladi va ijobiy va salbiy baho munosabatlarini yuzaga chiqaradi. Bunda ijobiy va salbiy baho ifodalash sinestetik metaforik ma'no orqali reallashadi. Masalan, yoqimli ovoz, shirin ohang, issiq nafas, sovuq ohang, shirasiz ovoz singari. Demak, sifatni ot bilan birikmali vaziyatda bo'lishi eshitishni sinestetik metafora hodisa sifatidagi ahamiyatini yuzaga chiqarish faol ishtirok etadi.

Ma'lum bo'ladiki, ta'm ifodalovchi idrok sezgilari orasida eshitish sezgisi ham semantik sinkretik tabiatiga egaligi bilan o'ziga xosdir. Ta'm ifodalovchi sifatlarni otlar bilan biriga birika olishi keng ma'nodagi sinestetik metaforani, ya'ni eshitish metaforik xususiyatni ifoda etadi. Masalan, yoqimli musiqiy tarona (shirin akkord - turli darajadagi tovushning yoki milliy maqom asboblari jo'rligi hamohangligi); shirin ashula; ovoz, talaffuz (shirin ovoz, yoqimli nutq; shirali (yorqin, tiniq) tenor bilan bas oralig'idagi erkaklar ovozi yoki maqom musiqa asboblari jo'rliqidagi jamoa ovozi; shirin nafas, achchiq tovush singari. Insonning kundalik hayotida audiovizual idrok etishning sezgi a'zolari ichida o'ziga xos alohida o'rni bo'lishi tabiiy. Bu masalada tadqiqotchilar tomonidan bir necha bor qayd etilgan. S. V. Kravkov (1893-1951) ma'lumotlariga ko'ra, bir sezgi a'zosining faoliyati ikkinchisining ta'siri tufayli o'zgaradi, tovush asosan ko'rish sezgisining yorug'lik sezuvchanligini orttiradi. shunga o'xshash turli hidlar ham yorug'lik va hid bilishga nisbatan sezgirlikni oshirishi yoki kamaytirishi mumkin. Bunday o'zaro ta'sir sababli miya ustuni yuqori qismi va ko'rish bo'rtiqlariga tegishli o'simtalarning yaqin joylashganligi tufayli boshqasiga o'tishi osonroq amalga oshadi. [ФОЗИЕВ Э. УМУМИЙ ПСИХОЛОГИЯ. 2002.95-]

Gap shundaki, ko'pgina tillarda audiovizual taassurotlarni anglatuvchi leksik birliklar soni idrokning ta'm va hid turlarining ma'nosini bildiruvchi so'zlar va frazeologik birliklar soni sezilarli darajada ekanligi aytiladi. Darhaqiqat, o'zbek tili materiallarida ham audiovizual idrok bilan bog'liq so'zlarning sinestetik metaforik ma'no ifodalashini kuzatishimiz mumkin. Og'zaki nutqimizda shirin so'z dil ozig'i, yomon so'z bosh og'rig'i (Maqol). So'zi tuzsiz, o'zi bilimsiz, achchiq so'zlama singari iboralar sinestezik metaforik ko'rinishni ifodalaydi.

Ob'yektiv olam insonning sezgi va tassavurlariga bog'liq holda mavjud bo'ladi. Moddiy borliq his - tuyg'ularimiz hamda tasavvurlarimizning bitmas - tunganmas manbai sanaladi. Olamni bilish uni sezishdan, his qilishdan boshlanadi. Ularning birlashishi natijasida inson ongida narsalarning o'ziga xos obrazi - g'oya paydo bo'ladi. [Собиров А. 2022.83-.262]

O'zbek tilida to'plangan materiallar tahliliga e'tibor qaratsa eshitish bilan bog'liq sinestetik metaforalar salmog'i kengligi oydinlashadi. Masalan, Abduhoshim Ismoilov rahbarligidagi maqomchilar ansambili shirin, diltortar navolari bilan xalqimiz qalbini quvonchaga to'ldirdi (Xalq so'zi). O'zbek xalqining suyuqli suhandoni Qodir Mahsumov o'tkir nafas sohibi edi (Ma'naviyat va ma'rifat). Ichkaridan kelayotgan achchiq tovushlar Zarnigorning xayolini bo'ldi, ochiq qolgan eshikni yopib tashqariga chiqdi (R. Muxtorov). Keltirilgan birinchi jumlada shirin va diltortar leksemalari navo leksemasi bilan birikuvi sinestetik metaforani yuzaga keltirib jumla ma'nosidagi majoziy ifodani voqelantiradi. Ya'ni shirin semasi insonning musiqa va uning jo'rliqidagi navo (ovoz)ni eshitishda diliga rohat bag'ishlovchi, hayotdan ruhiy quvvat oluvchi konnotativ ma'nolarni o'ziga birlashtiradi. Diltortar leksemasi yoqimli, mazali semalari bilan jumla mazmuniga emotsional - ekspressiv ruhni olib kiradi. Ikkinchi jumlada o'tkir leksemasi (shirali, yoqimli) ta'm ma'nosini anglatib uzual ma'noni, o'tkir nafas birikmasi tarkibida konnotativ ma'noni bildiradi va sinestetik metaforani yuzaga keltirib barcha uchun yoqimli, inson ruhiyatiga kuchli ta'sir etuvchi, tantanavorligi yuksak ma'nolaridagi emotsionallikni ifodalaydi. Uchinchi jumladagi achchiq tovush birikmasi inson ruhiyatiga ta'sir etuvchi o'zaro tortishuvlar, shang'illash, ko'ngilsizlikni ifodalovchi so'zlar semantik qatorini tashkil etadi. Demak, bu jumlada achchiq semasi asl ma'noni emas, balki konnotativ emotsional - ekspressiv ma'noni bildiradi. Shuni ta'kidlash lozimki, qiyoslanayotgan hodisalar o'rasida muhim farq ham mavjud. Konkret ot yoki har qanday predmet bir nusxada (birlikda va betakror) mavjud bo'lsa, lisoniy birliklar, jumladan, so'z ham cheksiz nus'halarda namoyon bo'ladi. Ma'lum til egalarining har

qaysisi bu soʻzni cheksiz marta talaffuz etadi. Bu turli davrda yoki bir davrning oʻzida turli shaxslar tomonidan talaffuz etilgan soʻz moddiy tomondan bir – biridan maʼlum darajada farq qiladi. Bu farqlanishga qaramasdan, ularning hammasi bir umumiy soʻzning vakillari hisoblanadi.[Набиева Д..2005 .24.163.]

Anglashiladiki, keltirilgan sifat + ot + At + N modelidagi birikuvi taʼm bilan aloqador boʻlib, sinestetik metaforik maʼnoni ifodalab semantik sinkretizni voqelantiradi.

Taʼm belgisini ifodalovchi sifatlar tarkibida “taʼm” semasining mavjudligi turli modellar koʻrinishida shakllanadi. Taʼmga egalik + N + [baho + intensivlik] bu yerda N barcha belgilar uchun mos. Bu model N ot, sifat, son, olmosh, ravish leksemalari uchun umumiy sanaladi. Sifat leksemasi At tarzida belgilanadi. Oʻrganilgan materiallardan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, taʼm ifodalovchi modellar har bir xalqning oʻziga xos qoʻllanishi bilan ajralib turadi. D.Nabiyevaning taʼkidlashicha, “Leksemalarnig shakliy tomoni soʻzlovchining xotirasida imkoniyat, umumiylik tarzida lokalizatsiyalashgan, va bevosita nutqiy jarayonda xususiyliklar holida voqelangani kabi, shakliy tomoni ham ana shunday dialektik bogʻliqlikni oʻzida namoyo qiladi. Bundan koʻrinadiki, leksemalarda umumiy maʼno bilan xususiy maʼnolar va umumiy shakl bilan xususiy shakl oʻrtasida dialektik munosabat boʻlishi bilan birgalikda, umumiy maʼno bilan umumiy shakl va xususiy maʼno bilan xususiy shakl oʻrtasida ham dialektik aloqa mavjuddir”.

Adabiyotlar:

1.Вологина О.В.Синестетические метафоры и другие чувственно-эмоциональные образы вербальных интерпретациях произведений музыки и живописи.[https://cyberleninka.ru>article>sinesteticheskie-metaf...](https://cyberleninka.ru/article>sinesteticheskie-metaf...)

2.ФОЗИЕВ Э. УМУМИЙ ПСИХОЛОГИЯ.-Тошкент.Университет.2002.95-бет

3.Собиров А.Ўзбек тили лексикасининг систем –структур тадқиқи.-Тошкент.Booksmany print.2022.83-бет.(Б.262)

4.Набиева Д.Ўзбек тилининг турли сатҳларида умумийлик –хусусийлик диалектикасининг наммоён бўлиши.-Тошкент.2005.-Б.24.163 б.